

Abu Rayhon Beruniy asarlarida ijtimoiy axloqiy masalalar

Amonova Dilnoza Shermat qizi

Xolmanova Oyro'zi Akmal qizi

Samarqand davlat universitetining

Kattaqo'rg'on filiali Aniq va Tabiiy fanlar fakulteti

“Raqamli texnologiyalar va iqtisodiyot”

kafedrası “Ijtimoiy ish” yo'nalishi talabalari.

Annotatsiya. Maskur maqolada O'rta Osiyo xalqlari, xorazimliklar, so'g'dliklar, yahudiy, yunon, va boshqalar xalqlarining yil hisoblari, hayitlari, mashhur kunlari ijtimoiy madaniy va ilmiy hayotining tarixi urf-odatlar, dunyoqarashlari hamda O'rta Osiyoning arablar tomondan istilo qilinishi haqida to'liq ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: “Alosor al boqiya an alqurun alholiya”, tarbiya, urf-odatlar, turkey nomlar, Avesto haqida, yil va fasllar, ochni to'yg'azish, xushbo'y suv. Tenglik hukm surgan joyda sotqin, aldamchi, ehtiroslar, g'am-g'ussa bo'lmaydi.

Abu Rayhon Beruniy.

Axloq – kishilarning bir-birlariga, oilaga, jamiyatga bo'lgan munosabatlarida namoyon bo'ladigan xatti-harakatlari, xulq-atvorlari, odoblari majmui. Huquqdan farqli ravishda axloq talablarini bajarish-bajarmaslik ma'naviy ta'sir ko'rsatish shakllari (jamoatchilik tomonidan baho berish, qilingan ishni ma'qullash yoki qoralash) bilan belgilanadi. Axloqni etika fani o'rganadi.

Insoniyat taraqqiyotida axloq muhim o'rin tutadi. Sharqning buyuk mutafakkirlari insonni axloqiy kamol toptirish, uni har tomonlama rivojlantirish, ma'naviy qiyofasini shakllantirish jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri, deb qarashgan. Inson axloqiy, umuman ma'naviy va ma'rifiy jihatdan kamol topishi jarayonida turli tarixiy bosqichlardan – johillik, nodonlikdan ilmga, yovuzlikdan ezgulikka, vahshiylikdan insoniylikka o'tarkan, jamiyat ham shu

tariqa rivojlanadi. Ikki muqobil ibtido – yovuzlik va ezgulik, jaholat va kamolatning o‘zaro kurashi inson va jamiyat taraqqiyotini belgilagan, inson aql-zakovat sohibi sifatida o‘zini anglashiga olib kelgan. Bu ikki muqobil kuch kurashi jamiyatdagi mavjud ijtimoiy munosabatlarda ifodalansa, insonga nisbatan uning ichki olamiga xos nafs bilan qalb, aql bilan aqlsizlik o‘rtasidagi kurashda ifodalanadi. Axloq muayyan jamiyat va davrda o‘zgarishlarga uchrashi, rivojlanishi, so‘nishi mumkin. Har bir xalqning yoki millatning o‘ziga xos axloqi bilan bir qatorda, umumbashariy axloq me‘yorlari ham bor. Bunday axloq me‘yorlari jamiyatning umumiy taraqqiyotiga samarali ta’sir ko‘rsatadi. .

Axloq kishilarning bir –birlariga ,oilaga jamiyatga bo‘lgan munosabatlarda namoyon bo‘ladigan xatti-harakatlari,xulq-atvorlari,odoblar majmui hisoblanadi.Inson axloqi ,umuman ma’naviy va ma’rifiy jihatdan nodonlikdan ilmga yovuzlikdan ezgulikka ,vahshiylikdan insoniylikka o‘tarkan ,jamiyat shu tariqa rivojlanadi.

O‘tmishda ajdodlarimiz insoniyatning psixologik qonuniyatlarini muayyan ilmiy yo‘nalish sifatida o‘rganmagan bo‘lsalarda, biroq allomalarning asarlari, qo‘lyozmalarida mazkur holatlarning yoritilishi, tahlili kuzatiladi. Biz sharq mutafakkirlarining psixologik qarashlari bilan tanishar ekanmiz, inson va hayvonlar psixik hayotini o‘rganishga bo‘lgan intilishi kishilar hayotining har xil tarixiy bosqichlarida ularning qanday nazariy va amaliy bilan taqozo qilganligini ba’zi qonuniyatlar qanday kashf etilganligini bilib olamiz. Ta’kidlash lozimki, allomalarning shaxs ma’naviy-ruhiy kamoloti borasidagi qimmatli fikrlari hozirgi kungacha o‘z o‘rni va ahamiyatiga egadir. Jumladan, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Jaloliddin Rumiy, Alisher Navoiy, kabi mutafakkirlarning pedagogik-psixologik qarashlari bugungi kunda fan taraqqiyotining metodologik asosi bo‘lib xizmat qilmoqda.

Xulq-odob haqidagi hadislarda eng ezgu insoniy xislatlar ulug‘lanib, gunoh sifatidagi illatlar qoralanadi. Hadislarda insoniy xislatlardan ezgulik, iffat, sabr-qanoat, shukronalik kabi axloqiy xislatlar ulug‘lansa, isrofgarchilik, ta’magirlik, ochko‘zlik, nafsu-havoga, shahvoniy hissiyotlarga berilish, baxillik, johillik kabi

illatlar, yomon xatti-harakatlar “gunoh” sifatida qoralansa, inson farovonligi, jamiyat ravnaqi uchun qilinadigan yaxshi ezgu xatti-harakatlar, faoliyat “savob” tarzida olqishlanadi. Abu Nasr Farobiy inson kamolotga yolg‘iz o‘zi erisha olmaydi. U boshqalar bilan aloqada bo‘lish, ularning ko‘maklashuvi yoki munosabatlariga muhtoj bo‘ladi, deb hisoblaydi. Bunga Farobiy ta‘lim-tarbiyani to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish orqali erishish mumkin, deydi. Chunki maqsadga muvofiq amalga oshirilgan ta‘lim-tarbiya insonni ham aqliy, ham axloqiy jihatdan kamolga yetkazadi, xususan, inson tabiat va jamiyat qonun-qoidalarini to‘g‘ri bilib oladi va hayotda to‘g‘ri yo‘l tutadi, boshqalar bilan to‘g‘ri munosabatda bo‘ladi, jamiyat tartib-qoidalariga rioya qiladi.

Farobiy nazariy bilimlarni egallashga kirishgan har bir kishi xulq-odobda ham qay darajada pok bo‘lishi kerakligini “Falsafani o‘rganishdan oldin nimani bilish kerakligi to‘g‘risida”gi risolasida shunday ta‘riflaydi: “Falsafani o‘rganishdan avval o‘zingizni hirs-havaslardan shunday tozalashingiz lozimki, sizda maishiy va shahvoniyat kabi noto‘g‘ri tuyg‘ularga emas, balki kamolotga bo‘lgan hirs-havas qolsin.

Bunga xulq-axloqni faqat so‘zdagina emas, balki haqiqatda tozalash orqali erishish mumkin. Shundan so‘ng xato va adashishdan saqlovchi, haqiqat yo‘lini tushunib olishga boshlovchi (notiq-so‘zlovchi, fikrlash ma‘nosida) nafsini, jonini, ruhini tozalash zarur”.

Abu Rayhon Beruniy ilmi, ma‘lumotli kishi bo‘lishning o‘zini odob-axloq va nafosat bilan bog‘laydi. Uning dunyoqarashida axloq masalasi insonning eng asosiy sifatleri sifatida mujassamlashgan. Beruniyning fikricha, aqliy qobiliyatlar odamlarning kundalik ehtiyojlari asosida vujudga kelsa, axloqiy masalalar tarixiy taraqqiyot, odamlarning o‘zaro munosabatlari bilan chambarchas bog‘liq holda paydo bo‘ladi va rivojlanib boradi. Beruniy so‘zlari bilan aytganda, inson yerdagi bunyodkor va yaratuvchi kuchdir. Shuningdek, u insonning ijobiy va salbiy tomonlarini birma-bir ta‘rif etadi. Masalan, olim insondagi yaxshilik, rostgo‘ylik, oliyanoblik, muruvvat, mehr-shafqat, do‘stlik va jamoatchilik kabi fazilatlarni ulug‘laydi. Shu fazilatlarni o‘zida mujassamlashtirgan har bir inson har narsaga

qodirligini, o'z eli va yurti uchun beqiyos naf keltirishi mumkinligini alohida ta'kidlaydi, bu hozir ham ta'lim-tarbiya sohasida yetakchi o'rinni egallaydi. Yolg'unchilik, yomonlik, raqobatlashish, g'animlik, ichqoralik, qo'pollik, o'g'rilik, tuhmatchilik, ikkiyuzlamachilik, o'ziga bino qo'yish, xushomadgo'ylik, chaqimchilik illat sifatida qoralanadi.

Beruniy g'azab, ta'ma balosidan qutila olmagan kishilarni inson degan pok nomga sazovor emas, deb ta'lim bergan. Yuqorida lazzat va alam kabi tushunchalarning mazmunini bayon etar ekan, alloma alam, ta'ma, o'ch olish singari salbiy tushunchalarni yaxshilik tushunchasiga mutlaqo yot deb hisoblaydi. Beruniy axloqsiz odamlarni qayta tarbiyalash orqali odobli, yaxshi kishilar safiga qo'shishi, axloqsiz yomon odamlar birinchi navbatda nafsoniy hirs-havasdan o'zini tozalashi, axloqiy kitoblarda zikr qilingan barcha yaxshiliklarni o'rganishi hamda yaxshilar bilan yaqin munosabatda bo'lishi, yaxshilarga taqlid qilib yashash orqali odam o'zini-o'zi qayta tarbiyalashi mumkinligini isbotlashga uringan. Yaxshi kishilarga ergashish bu faqat bolalargina emas, balki barcha jamiyat a'zolariga ham xos xususiyat ekanligini o'sha zamonda aytilgan bo'lsada, ular hozirgi zamon pedagogik-psixologiyasining ham asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Yaxshi xulqqa intilgan, namunaga taqlid qilgan o'quvchi eng avvalo o'z imkoniyatlarini tushuna boradi, jamoadagi o'rnini to'g'ri belgilaydi. Inson ongli va tabiatning eng oliy mavjudoti bo'lgani uchun ham namunadan o'rnak oladi. Irodasizlik o'zini-o'zi qo'lga ololmaslik insonga xos xususiyat emas deb ko'rsatgan edi, Beruniy.

Jaloliddin Rumiy ham "Ma'naviy masnaviy" sida inson xulq-atvoridagi salbiy xususiyatlar borasida o'z qarashlarini bildiradi. U adovat, badjahillik, hasadgo'ylik, aybjo'ylik, g'araz, qahr-g'azabni qattiq qoralaydi va insonning eng qabih illatlari sifatida tavsiflaydi.

Uning ta'kidlashicha, "hasad nafsga bog'liq sifat bo'lib, kishi o'zidagi nuqsonni va begonaning kamolotini anglab yetgach, kin-advovat va badjahillikdan bedavo ruhiy dardga giriftor bo'ladi. Hasadchi hamisha o'z qurbonini muayyan

sifatdan mahrum bo'lishini orzu qilib yashaydi. Bu dard uni hamisha ta'qib aylaydi. Hasadchi ranj ichida o'z o'tiga qovriladi. Hasad murakkab sifatdir. Uning natijasi xavfli va g'oyatda og'ir. O'z nuqsonini anglagan kishi avvalo o'z kamoloti yo'lida harakat qilmog'i o'rniga fazilat sohibining mahrumiyatini, xaloqatini istaydi. Xuddi shuning o'zi nafsning zaifligini, darmondaligini isbotlaydi... Hasad mashaqqatli dovon. Undan kamdan-kam odamgina o'ta oladi. Alloma "Ayb qidirmoq va ta'na qilmoq insonning eng qabih illatlaridandir"- deydi. Bu ko'ngilsiz hol bir odamning o'zi nopisand bilgan kishiga nisbatan adovati mahsuli hisoblanadi. Kimki pok insonlar va Xudoning mardlariga ta'na qilsa o'z botini yuzidagi pardani olib tashlagan bo'ladi. O'zining bad niyatini oshkor aylaydi. Badnom va rasvo bo'ladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Jaloliddin Rumi o'zining "Ma'naviy masnaviy"ida insoniyatning agressivlikka moyilligi, agressiv reaksiyalar, agressiv xulq-atvor shakllari xususida qarashlarini bayon etadi.

Alisher Navoiy "Mahbub ul-qulub" asarida insoniy fazilatlar va ezguliklarni madh etib, targ'ibu-tashviq etish bilan cheklanmay, ayni zamonda odamlardagi yomon, xunuk, insoniylikka xilof xislatlarni, insonlar uchun, jamiyat uchun zararli, sharaflil inson sha'niga yarashiqsiz xulq-atvor va sifatlarni tanqid qiladi. Achchiq so'zlilik, nodonlik, yomon qiliqlilik, yolg'onchilik kabi illatlarga berilgan kishilarni qoralaydi. Navoiy ana shu yomon, yaramas xislatlardan, illatlardan odamlarni xoli ko'rishni istaydi. Karamli, muruvvatli, sadoqatli, yumshoq ko'ngilli, shirinsuhan, muloyim bo'lish kabi bir talay fazilatlarini Navoiy ko'klarga ko'tarib madh etadi.

"Achchiq tillik" eng yomon xususiyatlardan biri ekanligi haqida Alisher Navoiy shunday yozadi: "Achchiq til zaharli nayzadek sanchiladi. Ko'ngilda til nayzasining jarohati bitmas, unga hech narsa malham bo'la olmaydi". Uning bu fikrida verbal agressiya, ya'ni salbiy his-tuyg'ularni og'zaki tarzda ifodalash shakli o'z aksini topganligini ko'rishimiz mumkindir.

Navoiy kishilarni ochiq chehrali bo'lishga da'vat etadi va deydi, bunday kishilarning "ochiq yuzidan xaloyiqqa xursandlik va shirin so'zidan ulusg'a

shodlik yetishadi”. Alisher Navoiy inson xulq-atvoridagi salbiy jihatlarni quyidagicha ifodalaydi:

“Yaxshilikka mukofotni qo‘pollik, odob bilan qilingan xushmuomala evaziga kekkayish, takabburlikdan o‘zgacha munosabatni ko‘rmaymiz. Birovga bir xizmat qilsang, undan o‘n zarb yeyishga tayyor turmoq kerak, kimgaki bir tavoze‘ ko‘rsatsang, ming qo‘pollik va dilsiyohlikka xozir bo‘lib turmog‘ing lozim. Har qanday xizmatkorlik qilib, uning evaziga jabr-jafo ko‘rganing holda, sendan yana xizmat kutadilar. Har qancha vafodorlik ko‘rsatib, ko‘z oldida ranj-mashaqqat tortsang, yana qulluq ta‘ma qiladilar. Do‘st sifatida joningni bermasang, joningga dushmanlik qiladilar, ularning ko‘ngli uchun nohaq qon to‘kishga rozi bo‘lmasang, qoningning to‘qilishiga guvohlik beradilar. Doim istagan ishlarini o‘z vaqtida qilsang-u, ammo bir gal kechiksang, so‘kib haqoratlaydilar”.

Inson kamoloti tarbiyasi masalasi o‘tmishdagi faylasuf-mutafakkirlar ijodida ma‘lum darajada ifodalangan bo‘lsa-da Beruniy uni yanada rivojlantirgan va to‘g‘ri asoslagan. Beruniy bilim olishni axloqiy tarbiya bilan bog‘laydi. Zero, insonda komillikning muhim mezoni yuksak axloqlilikdir. Beruniyning inson kamolotida axloqiy tarbiyaning muhim o‘rnini ta’kidlashini uning yuqorida qayd etilgan «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar», «Hindiston», «Mineralogiya», «Kitob as-Saydana», «al-Qonuni al-Mas’udiy», «Giodeziya» va boshqa asarlarida ko‘ramiz. Beruniy fikricha, axloqlilik insonning eng asosiy sifati bo‘lishi kerak. Bu xislat birdaniga tarkib topmaydi. U kishilarning o‘zaro muloqoti, ijtimoiy muhit - jamiyat taraqqiyoti jarayonida tarkib topadi. Beruniy axloqiy tarbiyaga musulmon dini talablaridan kelib chiqqan holda ta’rif beradi. Axloqlik yaxshilik bilan yomonlik o‘rtasidagi kurash natijasida namoyon bo‘ladi va tarkib topadi, deydi u. Yaxshilik va yomonlik insonning xulq-atvorini belgilaydigan mezondir. Insonning axloqiy kamolga yetishi muammosi ta‘lim-tarbiyada markaziy masala bo‘lib kelgan. Abu Rayhon Beruniy ezgu tilakka yetishga to‘sqinlik, yolg‘onchilik, munofiqlik manmanlik, takabburlik kabi nuqsonlarni qoralaydi, boylikka ruju qo‘yish va ta’magirlik, g‘azab va johillik inson uchun eng ashaddiy dushman deb qaraydi. Mutafakkir jamiyatda adolat o‘rnatish, uni

yovuzliklardan xalos etish yo'llari, adolatli hukmdor bo'lishi kerak, deydi. Beruniy insonning kamolotga erishuvi tajribaga tayanuvchi aql-idrokka amal qilishdan boshlanishini, inson tashqi dunyoni bilishga qobilligini, shu asosda bilim olishni, haqiqatni eslash, haqiqat esa uning to'g'ri his tuyg'ularini taqozo etishini va shularning hammasi inson shaxsi kamol topishining bosh yo'li ekanini bayon qilgan. Shuningdek, inson katta nuqsonlardan doimo yiroq bo'lishi zarurligini, bunday nuqsonlar bilimsizlik, yolg'onchilik, molu dunyoga hirs qo'yish, munofiqlik, xushomadgo'ylik, nafsni tiymaslikdan iboratligini uqtirgan. Olim inson axloqini shakllantiruvchi vosita mehnat, deb hisoblaydi. Uning fikricha, aqlidrok va mehnatning jamlanishigina kishilarning to'g'ri hayoti va pok axloqini belgilab beradi. U o'zining "Metereologiya", "Feruza", "100 hikmat", "Ayol makri" va bir qator yozgan hikmatlar, naqlar va she'rlarida axloqiy tarbiyaning bosh mezoni mehnat tarbiyasi ekanini asoslab berdi. Mehnat inson qalbida muruvvat hissini uyg'otadi. Beruniyning muruvvat haqidagi g'oyasida xayrixoh bo'lishlik, halol, haqgo'y va boylik orttirishga intilmaydigan o'z mehnati hamda o'zgalarning mehnatini hurmatlaydigan sifatlarni nazarda tutgan edi. Beruniy bolalarni axloqiy barkamolligi va yomon fazilatlardan saqlashda quyidagi tarbiya usullarini olg'a surgan edi: 1. O'rnak olish. Donishmand va olimlar xulqlaridan o'rnak olish yaxshi xulqni rivojlantiradi, yomon odatlarni yo'q qiladi. U ko'proq ota-onalarni farzandlariga o'rnak bo'lishga chorlaydi. 2. Pand va nasihat. Beruniy pand-nasihat orqali bolalardagi ayrim nuqsonlarni anglatish zarur, deb hisobladi va u quyidagi fikrlarni bayon qildi: "Odamlar o'rgangan, odatlangan va ko'pchilikka ma'qul bo'lgan narsaga qarshilik ko'rsatmasdan o'rganish kerak". Yaxshi xulqlar yaxshilik alomatidir, yomon xulqlardan bolalarni saqlamoq lozim. Ayniqsa, maqtanish, buzuq niyatlilik, chaqimchilik, besabrlilik, nafs balosi, yolg'onchilik va boshqalar. Beruniy yolg'on doim rostan yengiladi, degan edi. Shuning uchun rostgo'ylik fazilatini hamma o'ziga mujassam qilishni orzu qilgan. Lekin u o'zini naqlaridan birida shunday yozgan edi: yolg'onchilikka shu qadar o'rganganlar borki, ulardan nogahon: — Rost gapirib qo'yishdan qo'rqmasam yo'q der edim, — degan javob

eshitasiz. Bunday kishilar adolatdan chetga chiqib, o'zlarini xafvga tashlagan bo'ladilar. Rostgo'ylik barkamol insonning yuksak fazilatidir.

Abu Rayhon Beruniy ilm-fan tarixiga entsiklopedik olim sifatida kirdi. Olim shaxsining shakllanishiga o'sha davrning mashhur mutafakkirlari Muhammad ibn Muso Al-Xorazmiy, Alfarobiy va boshqalarning ijodi ta'sir ko'rsatdi. U o'sha davrdagi deyarli barcha bilim sohalariga bag'ishlangan 150 dan ortiq asarlar yozdi. Uning "Yodgorliklar", "Geodeziya", "Hindiston", "Masuda kanoni" kabi asarlari va boshqalar nafaqat o'zbek va rus tillariga, balki dunyoning ko'plab tillariga ham tarjima qilingan. Beruniy o'zining mashhur "Hindiston", "Mineralogiya" asarlarida jamiyat hayoti, axloq, axloq haqidagi asosiy qarashlarni to'liq bayon yetgan. Olim sha'n va qadr-qimmat, yaxshilik va yomonlik, adolat va vijdon kabi axloqiy muammolarga katta ye'tibor bergan. Ularni axloqiy fazilatlarini hisobga olgan holda, u olijanoblik yaqin odamlar oldidagi majburiyatlarni bajarishiga ishongan. Insonni faqat bilim qamrab oladi va uning bilimlarini boshqalarga yetkazish haqiqiy baxt keltiradi, deb o'ylash muhimdir.

Beruniyning fikricha, insonning eng oliy baxti bilimdadir, chunki unga aql berilgan. Faqat baxtni bunday tushunish jamiyatga tinchlik va farovonlik olib keladi. "Haqiqiy zavq bag'ishlaydigan yagona narsa shundaki, unga bo'lgan istak inson unga yegalik qiladi. Va bu inson qalbining holati, u ilgari bilmagan narsalarini bilib oladi". Beruniy xalqlar o'rtasidagi tinchlik va do'stlikning buyuk chempioni bo'lgan. U xalqlar do'stligini inson baxti va ijtimoiy taraqqiyotning asosi deb bilgan. Beruniy urushlar davrida madaniyat va fanlarning yo'q qilinishini qoraladi. Uning "Hindiston "u achchiq" o'zaro kelishmovchilik va nizo barcha xalqlarni bartaraf", deydi . Mutafakkir xalqlar o'rtasida to'g'ri munosabatlar o'rnatilishiga to'sqinlik qiladigan milliy cheklovlarga qarshi chiqdi. U "er ularning yerlari, odamlar faqat o'z xalqlarining vakillari, shohlar faqat ularning hukmdorlari, din faqat ularning ye'tiqodi, fan faqat ularda bornarsa" deb ishonganlarni qoralaydi. U bunday e'tiqodlarni ahmoqlik deb atadi. Beruniy inson tabiatining barcha salbiy xususiyatlarini qoralab, insonda mehr-oqibat va olijanoblikni kuyladi:" Mehribonlik barcha odamlarga, xususan, qarindoshlarga

yaxshilikka intilishdan iborat, iktidarsizlik bilan – yaxshi tilak bilan, iloji bo'lsa, ish bilan". Beruniyning fikricha, insonning ma'naviy qiyofasi, uning turmush tarzi insonning o'zi, uning tarbiyasi, "ruhiy shifo" bilan belgilanadi. Ko'ramizki, Beruniy axloq va axloqning fundamental masalalari bo'yicha juda qiziqarli va chuqur fikrlarni bildirgan, ularning aksariyati bugungi kunda juda zamonaviy va o'z vaqtida yangragan, chuqur insonparvarlikka yega. U yanada ta'kidladi: "axloq va turmush tarzi ma'noda jon paydo kelsak, uning yehtiroslarni ustidan hokimiyatni yega bo'lgan kishi, uning ruhini tarbiyalash kabi, maqtovga sazovor bo'lgan salbiy tomonini o'girib, uni o'zgartirish imkoniyatiga yega bo'ladi". Va yana: "... Baxt samimiy do'stda maqtovga sazovor xarakterga yega, munosib turmush tarzini olib boradi...", yaxshilik toifasi uning talqinini beradi: "... Mehribonlik, umuman olganda, barcha odamlarga va xususan qarindoshlarga yaxshilik istashdan iborat, iktidarsizlik bilan – yaxshi tilak bilan, iloji bo'lsa - ish bilan". Olim ta'kidlashicha, atrofdagi odamlarga do'stona munosabatda bo'lishi, yaxshi yorug'lik berishi, hasad qilmasligi kerak, chunki hasad zarar keltiradi va foyda keltirmaydi. Yaxshi amal qilgan kishiga yaxshi amallari o'lchoviga ko'ra mukofot beriladi, lekin yomonlik qilganga uning yomonligi kifoya qiladi.

Qadim xalqlardan qolgan yodgorliklar “ (asl nomi „Alosor al boqiya an alqurun alholiya“) – xorazmlik olim, mutaffakir Abu Rayhon Beruniyning ensiklopedik asari. Ushbu asarni Abu Rahon Beruniy 27 yoshida Xorazmda yozib tugatgan.

Asarda O'rta Osiyo xalqlari, xorazmliklar, so'gdliklar, yahudiy, yunon va boshqalar xalqlarning yil hisoblari, hayitlari, mashhur kunlari, ijtimoiy, madaniy va ilmiy hayotining tarixi, urf-odatlar, dunyoqarashlari hamda O'rta Osiyoning arablar tomonidan istilo qilinishi haqida to'liq ma'lumotlar berilgan.

Asarda Biruniy Xorazmning turkiy aholisi foydalangan yillarning turkiy nomlarini beradi (sichqon, od, bars, tushqon, lyu, ilon, yun, kuy, pichin, tagiru, tunguz). Xuddi shu asarida u oy nomlarini turkchada beradi: ulug'-oy, kichik-oy, birinchi-oy, ikkinchi-oy, uchinchi-oy, to'rtinchi-oy, beshinchi-oy, oltinchi-oy, yetinchi-oy, sakkizinchi-oy, tokkuzinchi-oy, uninchi-oy.

Unda olimning tabiiy fanlarning turli sohalariga, jumladan, astronomiya xaritagrafiya va boshqalar fanlarga matematika fizika oid kashfiyotlari o'z ifodasini topgan.

Asar Yevropada XIX asrning 2-yarmida ma'lum bo'lgan. Nemis sharqshunosi E.Zaxau 1876—78 yillarda asarning arabcha matnini, 1879-yilda ingliz tilidagi tarjimasini („Sharq xalqlarining tarixi“ nomi bilan) nashr ettirgan. Ko'pincha ilmiy adabiyotda „Xronologiya“ deb ham ataladigan bo'lgan. Eronlik olim Sayrafiy 1943-yilda Tehronda fors tilida chiqargan. Asarning ruscha tarjimasi 1957-yilda, o'zbekcha tarjimasi 1968-yilda Toshkentda Beruniy „Tanlangan asarlari“ turkumida (1 jild) O'zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti tomonidan nashr qilingan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.SH.M. Mirziyoyev Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz . Toshkent . O'zbekiston nashriyoti 2017 yil.
- 2.Qayumov .Qadimiyat obidalari. Toshkent:1971-yil
- 3.Abu Rayhon Beruniy . Al-osorul-boqiya an-al qarunul-holiya.Toshkent 1996-yil.
- 4.Abu Bahr Muhammad ibn Ja'far Narshaxiy .Buxoro tarixi.Toshkent 1996-yil